

## XORAZM VILOYATIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAJMULARINI JOYLASHTIRISHDA TABIIY GEOGRAFIK O'RINNING AHAMIYATI

Matjonov To'rabek Otabek o'g'li

Urganch davlat Universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7068340>

*Annotatsiya.* Geografik o'rinni geografik joylashuv sanoat korxonalarini hamda qishloq xo'jaligi majmularini joylashtirishda eng asosiy muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligi majmularini joylashtirishda tabiiy geografik o'rinning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

*Kalit so'zlar:* tabiiy geografik o'rinni, iqtisodiy geografik o'rinni, siyosiy geografik o'rinni, cho'llashish, deygish xodisadi, ekologik muhit.

### ЗНАЧЕНИЕ ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ПОЛОЖЕНИЯ В РАЗМЕЩЕНИИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КОМПЛЕКСОВ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

*Аннотация.* Географическое место, то есть географическое положение, является важнейшим фактором размещения промышленных предприятий и сельскохозяйственных комплексов. В данной статье представлена информация о значении природно-географического положения в размещении сельскохозяйственных комплексов в Хорезмской области.

*Ключевые слова:* природно-географическое положение, экономико-географическое положение, политко-географическое положение, опустынивание, феномен опустынивания, экологическая среда.

### SIGNIFICANCE OF THE NATURAL AND GEOGRAPHICAL POSITION IN THE LOCATION OF AGRICULTURAL COMPLEXES IN THE KHOREZM REGION

*Abstract.* The geographical place, that is, the geographical location, is the most important factor in the location of industrial enterprises and agricultural complexes. This article provides information on the importance of the natural and geographical position in the placement of agricultural complexes in the Khorezm region.

*Keywords:* natural-geographical position, economic-geographical position, political-geographical position, desertification, desertification phenomenon, ecological environment.

### KIRISH

Bugungi hayotimizni ishlab chiqarish sanoatsiz eng muhimi kundalik istemol qiladigan oziq-ovqat maxsulotlarisiz tasavvur qilish qiyin. Bunda eng asosiy o'rinni qishloq xo'jaligi o'ynaydi. Sababi qishloq xo'jaligini kirib bormagan tarmog'i deyarli yo'q. Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligining juda ko'p majmualari tarmoqlari turli xududlarida turlicha tarqalgan bo'lib, viloyatda qishloq xo'jaligi agrag sohaning eksport salohiyatini oshirishda eng muhim bir omil hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida yuqori natijalarga erishishda eng muhim o'rinni qishloq xo'jaligi majmularini joylashtirish muhim hisoblanadi. Har qanday ishlab chiqarish sanoat korxonalari yoki qishloq xo'jaligi maxsulotlarini saqlovchi omborlarni qurishdaa ya'ni ularni xududlarga taqsimlab joylashtirishda eng asosiy o'rinni hududning tabiiy geografik o'rnnini inobatga olgan holda amalga oshirgan maqsadga muvofiq.

### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Xorazm viloyati maydonining kattaligi bo'yicha respublikadagi viloyatlar orasida Andijon va Sirdaryo viloyatlardangina katta hisoblanadi. Xorazm viloyati maydoni 6.3

ming km<sup>2</sup> ni tashkil qiladi. Bu maydonning katta qismi sho‘rlangan maydonlar va sug‘orilmaydigan yerkarni tashkil etadi[1]. Lekin shunday bo‘lishiga qaramay Xorazm viloyati iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi asosiy o‘rinni egallaydi. Qishloq xo‘jaligida mehnat vositasi ham mehnat predmeti ham yer hisoblanadi.

## TADQIQOT NATIJALARI

### Viloyat bo‘ylab qishloq xo‘jaligi majmualari quyidagi jadvalda geografik joylashuvini yaqqol ko‘rishimiz mumkin

1-Jadval

N	Tuman nomi	Qishloq xo‘jaligi majmualari
1.	Shovot, Xonqa	Paxtachilik, Bug’doychilik
2.	Gurlan, Xonqa, Bog’ot, Shovot, Yangiariq	Sholichilik
3.	Shovot, Hazorasp, Xonqa	Bog’dorchilik va uzumchilik
4.	Urganch, Gurlan, Xiva, Xonqa	Qoramolchilik
5.	Hazorasp, Qo’shko’pir, Shovot, Yangiariq, Bo’got	Qo’ychilik

Yuqoridaagi jadvalni va Xorazm viloyatining tabiiy xaritasini solishtirish natijasida shuni tushunishimiz mumkinki, tabiiy geografik o‘rin jihatidan har bir hududda tashkil etilgan yoki endi kelajakda tashkil etilishi ko‘zda tutilgan sanoat korxonalari hamda qishloq xo‘jaligi majmularini joylashtirishdan oldin tabiiy geografik o‘rinning dolzarbligini aniq bilgan maqsadga muvofiq.

## MUHOKAMA

Xorazm viloyatining atrofi yirik bo‘lgan cho’llar (Qoraqum va Qizilqum) bilan o’ralgan. Hududdan oqib o‘tadigan yagona daryo bu Amudaryo daryosi hisoblanadi. Viloyatning tabiiy geografik o‘rin jihatidan joylashishi natijasida turli xil tabiiy ofatlar ham bo‘ladi buni ko‘pchiligidan yaxshi bilamiz. Masalan, cho’llashish muammosi cho’llarning maydonini kattalashib qishloq xo‘jaligi yerlarini qisqarishiga sabab bo‘lmoqda. Yana shunday hodisalardan biri bu deygish xodisasi hisoblanadi. Deygish xodisasi bu – daryo suvlari natijasida o‘z qirg‘oqlarini yemirishidir.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Xorazm viloyatida qishloq xo‘jaligi majmularini joylashtirishda tabiiy geografik o‘rinning ahamiyati juda katta bo‘lib uni hisobga olmay turib biror bir o‘zgarish qilish xato bo‘ladi. Amaliy geografiyada shunday bir tamoyil bor bo‘lib, axborotning to’liqlik tamoyili deyiladi. Bunda biror bir hududni yaxshilash yoki o‘zgartirishdan oldin hududni har tomonlama o‘rganib chiqib to’liq axborotlarga ega bo‘lish muhim hisoblanadi. Mavzuning dolzarbliji sifatida ushbu tamoyilni ko‘rsatib beradi.

## REFERENCES

1. Sobirov, J. X. O., Komiljanova, E. U. Q., & Sharifboyeva, H. I. Q. (2022). XORAZM VILOYATIDA AGRAR SOHANING EKSPORT SALOHIYATINI KENGAYTIRISHDA AYRIM NOAN'ANAVIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI VA RIVOJI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 38-42.
2. Azimovna M. S. IMPROVING THE STUDY OF CONSUMER BEHAVIOR //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – C. 109-112.
3. Islambayevna M. M. et al. XORAZM VILOYATI TABIIY GEOGRAFIK O'RNINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (GEOGRAFIK O'RNINING QULAY VA NOQULAY TOMONLARI) HAQIDA //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 50-53.
4. Azimovna M. S. et al. Analysis of the main economic and marketing indicators of FE" DAKA-TEX" LLC //ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603. – 2022. – T. 11. – №. 06. – C. 4-7.
5. Kuzibayevna K. D. et al. Drying of the Aral Sea and changes in the landscape of the Aral Sea region //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – T. 4. – C. 108-110.
6. O'g'li S. J. X. et al. ATMOSFERA HAVOSINING IFLOSLANISHINI NATIJASIDA INSON SALOMATLIGIGA TA'SIR QILUVCHI GEOGRAFIK OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D4. – C. 7-9.
7. Azimovna M. S., Ilkhomovna U. D. Optimal principles of assessing the quality of graduates in higher education //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – T. 8. – C. 233-238.
8. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent 2002.
9. Qurbaniyozov Rustam. Xorazm Geografiyasi. Urganch-1996.
10. Internet saytlari.